

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tahlil qilish

(3-sinf II qism darsligi misolida)

Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

qatamurotova@gmail.com

Murodova Mahbuba Farhod qizi

Sattorova Fazilat Xolmurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tahlil qilish ya'ni, 3-sinf ona tili darligining "So'z tarkibi. Asos asosdosh so'zlar" mazusini tahlili berilgan. 3-sinf o'quvchilariga asos va asosdosh so'zlarni qanday tushuntirish kerakligi va bu mavzu yuzasidan mashqlarni ishlanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: asos, asosdosh so'zlar, ona tili, Vatan tuyg'usi, 3-sinf.

Kirish. Ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang'ich ta'linda ona tili darslarida milliy jihatlar bilan tashkil etishda, dars mazmuniga Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, an'ana va milliy qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik, odobli, mehnatsevar bo'lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim.

O'quvchilarning mustaqil, tanqidiy holda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirishda ona tilining ifoda imkoniyatlarini o'zlashtirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bola o'z shakillanishi jarayonida atrof muhiddagi voqeа hodisalarini u yoki bu mavzuga aloqador bo'ladi. Bu aloqadorlik natijasi narsa buyum voqeа-hodisalarning nomlari va ularning xususiyatlari bilimga intiladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi,

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ta'lism beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Asosiy qism. Ta'lim tizimimizda juda ko'plab yangiliklar kiritilmoqda. Birgina ona tili darsligining o'ziga har chorakda alohida kitob chop etilmoqda. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tahlil qilishda 3-sinf ona tili darsligining "So'z tarkibi. Asos va asosdosh so'zlar" mavzusini tahlil qilamiz. Ushbu mavzu darslikning 13-mavzusida berilgan. Asosdosh so'zlar, asos haqida ma'lumot berilgan va shunga doir mashqlar berilgan. Mashqlarning ko'pchiligi mantiqiy fikrlashga asoslangan. Chunki, yangi avlod darsliklarini ishlab chiqarishning asosiy maqsadi ham o'quvchilarni ko'proq yodlashga emas mantiqiy fikrlashga, o'ylashga qaratilgan. Darslikning 45- betidagi 53-mashqining berilishida asosdosh so'zlardagi umumiyligini qism bo'lgan asosni tegishlicha belgilang deyilgan. Mavzuning boshida asosdosh so'zlardagi bir xil asoslarni qanday belgilanishi haqida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu mashqdan asosdosh so'zlarni topish uchun mashqni keltirib o'tamiz.

53-mashq. Bog'bon o'quvchilarni bog'ga taklif qildi. U chiroyli gullardan o'quvchilarga guldasta tayyorlab berdi. Bolalar guldastalarni olib, bog'bonga rahmat aytishdi. Ular gullarni to'g'ri parvarish qilish haqida bog'bondan so'rab oldilar.

Bog'bon va bog' sozlarini asosi asosdosh so'zlar sanaladi. Gullar va guldasta so'zlaridagi gul so'zi ham asosdosh so'z hisoblanadi.

Yuqoridagi mashqdan tashqari yana bir necha maqshlar berilgan. Bu mashqlar orqali o'quvchilarga asos va asosdosh so'zlarni juda yaxshi tushuntirish mumkin. O'quvchilarda asosdosh so'zlarga doir ko'nikma hosil bo'ladi. Keltirib o'tgan mashqimizga yana qo'shimcha qilib 63-mashqni ko'rib o'tamiz. Ushbu mashq grafik shasklda berilgan.

63-mashq. So'zlar yozib bo'sh kataklarni to'ldiring. Yozgan so'zlaringizning ma'nosini tushuntirib bering.

G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				

Bu mashq orqali o'quvchilar yanada chuqur bilimga ega bo'lishadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarga ona tilini o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo o'z bilimlariga tayangan holsa darsni tashkil qilishi kerak. Dars jarayoni samarali, qiziqarli o'tishi uchun, bolalarni mavzuni yaxshi o'zlashtirishlariga turli xil qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish kerak. Yuqorida keltirilgan 3-sinf ona tili darsligida berilgan mavzu orqali o'quvchilarga asos va asosdosh so'zlar haqida to'g'ri va aniq ma'lumot berishi lozim.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karima Qosimova va boshqalar muallifligidagi "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv-uslubiy qo'llanma.
2. Novda edutainment 3-sinf ona tili ll qism darsligi, 2023-yil.
3. www.ziyo.uz
4. inlibrary.uz internet saytlari